

O'QUV DASTURLARI UZVIYLIGINI TA'MINLASH — TA'LIM SIFATINI OSHIRUVCHI OMIL SIFATIDA

*Sh. X.Ikromov Andijon davlat universiteti
"Umumtexnika fanlari va mehnat ta'limi kafedrasining dotsenti ,
M.I.Qurbonova Andijon davlat universiteti
"Umumiy pedagogika" kafedrasining katta o'qituvchisi.*

O'zbekiston ta'lim tizimi Xalqaro ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich integrallashib bormoqda. O'zbekistonda ilk bor Milliy malakalar ramkasi tasdiqlandi, bu esa ta'lim tizimi xodimlaridan ulkan vazifalarni bajarishni talab etadi. Maqolada ta'lim tizimi barcha bosqichlarining o'quv dasturlari uzviyligini ta'minlash — ta'lim sifatini oshiruvchi omil sifatida tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talablaridan kelib chiqib, uzluksizlik ta'limda me'yoriy hullatlar tizimlashtirilishi, fanlar mazmuni izchilligiga erishishni, ta'lim jarayoni innovatsion tarzda muvofiqlashtirishga erishishi zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: UNISEF, "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi (MO'D), kredit modul, fan konsepsiyasi (ta'lim turlariaro fanning mazmunan va mohiyatan uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash asoslari yoritiladi), qiyosiy jadvallar, OT DTS, oliy ta'lim, malaka talablari.

Система образования Узбекистана постепенно интегрируется в международную систему образования. Впервые в Узбекистане утверждена национальная рамка компетенций которая требует от сотрудников системы образования выполнения огромных задач. В статье анализируется интеграция учебных планов на всех уровнях системы образования как фактор повышения качества образования. Основываясь на международном опыте и требования новой редакции Закона «Об образовании» необходимо систематизировать нормативные документы в системы непрерывного образования добиться системности содержания дисциплин добиться инновационной координаций образовательного процесса.

Ключевые слова: ЮНИСЕФ. Национальная учебная программа общего среднего образования (НКСО) кредитный модуль научное понятие (основа обеспечения приемственности содержания и сущности международного образования, сравнительные таблицы ОТ ДТС, высшее образование, квалификационные требования.

The Uzbek education system is gradually integrating into the international education system. For the first time in Uzbekistan, the National Competence Framework has been approved, which requires employees of the education system to perform huge tasks. The article analyzes the integration of curricula at all levels of the education system as a factor in improving the quality of education. Based on international experience and the requirements of the Law "On Education" it is necessary to systematize the regulatory documents in the system of continuous education,

To achieve a systematic content of innovative coordination of the educational process.

Key words: UNICEF, National Curriculum for General Secondary Education (NCSE) credit module, scientific concept (the basis for ensuring the continuity of the

content essence of interdisciplinary education) comparative tables, OT TTS, higher education ,qualification requirements.

Ta’lim sohasi mamlakat taraqqiyotining strategik yo‘nalishi hisoblanadi. “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi”ga erishishda “...umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish”ga Yurtboshimiz tomonidan alohida urg‘u berilgani bejiz emas.

Yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda (2020yil 23 sentyabr) maktabgacha ta’limdan boshlab, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta’limning uzviyligini, mazmun jihatdan ketma-ketligini ta’minlashga alohida ahamiyat berilgan.

O‘zbekiston ta’limi Xalqaro ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich integrallashib bormoqda. O‘zbekistonda ilk bor Milliy malakalar ramkasi tasdiqlandi, bugungi kunda tarmoq kvalifikatsiya ramkalari, kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha professional standartlar hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratish va yangi o‘quv yilidan joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini oid davlat dasturiga muvofiq:

1. 2022 — 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur (keyingi o‘rinlarda — Rivojlantirish dasturi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlandi. Rivojlantirish dasturining asosiy yo‘nalishlari 2024-yil 1-sentabrga qadar Milliy o‘quv dasturining ta’lim jarayoniga to‘liq joriy etilishini 2024-yillarda 4-, 5-, 8-, 9- va 11-sinflar uchun darsliklar, mashq daftarlari hamda o‘quv qo‘llanmalar yaratilishini ta’minlash belgilangan.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining yangilangan davlat o‘quv dasturining mazmun-mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligini ta’minlash hamda 6-7 yoshli bolalarni boshlang‘ich ta’limga sifatli tayyorlash, ularda zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalar shakllantirish maqsadida zamonaviy o‘quv-metodik majmualar, didaktik va ko‘rgazmali o‘quv materiallar, shuningdek, boshqa ta’lim resurslari bosqichma-bosqich yaratilmoqda,

Maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti (2021yil 16 iyul) asosida fan dasturlari takomillashtirilishi, ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlar qayta ko‘rib chiqilishi, mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar sonini qisqartirilishiga erishildi..

UNISEF bilan hamkorlikda xalq ta’limi tizimida “Umumiy o‘rta ta’limning Milliy

o‘quv dasturi (MO‘D)” ishlab chiqildi. Unga muvofiq, umumiy o‘rta ta’limning 6 ta komponentdan iborat bo‘lishini ko‘zda tutilmoqda:

1. umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari;
2. umumta’lim fanlarining konsepsiyalari;
3. umumiy o‘rta ta’limning o‘quv rejasi;
4. umumta’lim fanlarining o‘quv dasturlari;
5. umumta’lim fanlarini o‘qitish metodologiyasi;
6. baholash tizimi.

Baholash tizimi va o‘qitish metodologiyasi 2022-2023-o‘quv yilida hududiy xalq ta’limi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida ekspertizadan o‘tkazildi. MO‘D va u asosida yaratilgan darsliklar 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab tajriba-sinovdan o‘tkazildi.

Umumiy o‘rta ta’limning amaldagi DTS (2020-y.) da umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasini, o‘quv dasturlari mazmuni 80% nazariya va 20% amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lsa, MO‘D esa umumiy o‘rta ta’limning tayanch va variativ o‘quv rejalarini, o‘quv dasturlari mazmuni 50% nazariya va 50% amaliyotga yo‘naltirish amalga oshirmoqda.

Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, o‘qitish va baholashning samarali metodologiyalari asosida bosqichma-bosqich joriy etish orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga erishish mumkin..

Oliy ta’lim tizimida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmogda, nodavlat oliy ta’lim muassasalari soni ortmogda. Xorijiy OTMlar bilan qo‘shma fakultetlar, qo‘shma dasturlar ishga tushmogda.

OTMda kredit modul tizimida o‘qish (I-IIkurs), masofaviy o‘qish turlari joriy etildi. Bu esa o‘quv reja, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, xorijiy talablarga moslashtirish vazifalarini qo‘ymoqda.

Tayanch oliy ta’lim muassasalarining barcha bosqichlaridagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari fan dasturlari qayta ko‘rib chiqilib, mamlakatning milliy va ijtimoiy ehtiyojlarini, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning natijalarini korreksiyalab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmogda.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi xodimlari, tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda dastlab texnologiya va ona tili va adabiyot fanlaridan namuna tariqasida uzluksiz ta’lim tizimi uchun fan konsepsiyasi (ta’lim turlararo fanning mazmunan va mohiyatan uzluksizlik va uzviylikni ta’minlash asoslari yoritiladi), qiyosiy jadvallar fanlar kesimida barcha ta’lim turlarida o‘tiladigan mavzular bo‘yicha qiyosiy tahlil qilindi. Bu sayil xarakatni o‘quv rejadagi boshqa fanlar kesimida ham davom ettirilishi ijobiy natija berishiga olib keladi, chunki o‘quv dasturlarining uzviyligini ta’minlash vazifasining davomi darsliklardagi uzviylikka, takroriylikning oldini olishga, davlat budjetini iqtisod qilishga, farzandlarimiz bir xil bilimlarni takroriy olishga vaqt ketkazmasligiga xizmat qiladi.

Mantiqiy fikrlash va qiziqish o‘sadi, kompetensiyalar rivojlanadi, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik takomillashtiriladi, ta’lim oluvchi va beruvchilar uchun o‘zaro integratsiyalashgan pedagogik-metodik muhit shakllanadi. Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, uzluksiz ta’limda me‘yoriy hujjatlar tizimlashtirilishi, fanlar mazmuni izchilligiga erishilishi, ta’lim jarayoni innovatsion tarzda muvofiqlashtirilishiga erishiladi.. Buning

uchun o‘quv jarayonining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash yuzasidan har bir o‘qitilayotgan fan bo‘yicha dastur, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tanlovlarini o‘tkazish joiz, hamda tajribali mutaxassislar jalb qilinib, ilmiy-tadqiqot markazlari ishlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun 2020yil 23sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni.
3. Oliy ta’limning DTS. (Oliy va o‘rta ta’limi vazirligining 2021yil 16 iyul.311son buyrug‘I bilan tasdiqlangan)
4. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi Texnologiya ta’limi, Tasviriy san`at, CHizmachilik, Musiqa madaniyati, Jismoniy tarbiya. (1-9sinflar) “Toshkent- 2020”